

JIZZAX VILOYATIDA TABIIY RESURLARNI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN OQILONA FOYDALANISH CHORA-TADBIRLARI

Pozilov Mamajon Narzikulovich
Jizzax politexnika instituti professori

Annotatsiya. Maqolada asrlar davomida shakllangan geografik-biologik muhitga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar o'rganilgan. Inson faoliyati natijasida paydo bo'layotgan texnogen ob'ektlarni mintaqaning suv, tuproq resurslariga, o'simlik va hayvonot dunyosiga ta'sirini baholash maqsadida keng ko'lamli kuzatuv va ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish zarur.

Tayanch so'zlar: o'simlik va hayvonot dunyosi, oziq-ovqat mahsulotlari, biologik xilma-xillik, targ'ibot ishlari, muhofaza qilinadigan ob'ektlar, texnogen ob'ektlar.

МЕРЫ ПО ОХРАНЕ ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ И ИХ РАЦИОНАЛЬНОМУ ИСПОЛЬЗОВАНИЮ В ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ

Позиллов Мамаджон Нарзикулович
Профессор Джизакского политехнического института

Аннотация. В статье рассматриваются факторы, негативно влияющие на формировавшуюся на протяжении веков географическую и биологическую среду. Необходимо проведение широкомасштабного мониторинга и исследований по оценке воздействия техногенных объектов, возникающих в результате деятельности человека, на водные и почвенные ресурсы, растительный и животный мир региона.

Ключевые слова: флора и фауна, продукты питания, биоразнообразие, пропаганда, особо охраняемые природные территории, антропогенные объекты.

MEASURES FOR THE PROTECTION OF NATURAL RESOURCES AND THEIR RATIONAL USE IN JIZZAKH REGION

Pozilov Mamajon Narzikulovich
Professor of the Jizzakh polytechnic institute

Annotation. The article examines factors that negatively affect the geographical and biological environment that has been formed over centuries. It is necessary to

conduct large-scale monitoring and research to assess the impact of man-made objects arising as a result of human activity on water and soil resources, flora and fauna of the region.

Keywords: flora and fauna, food, biodiversity, propaganda, specially protected natural areas, anthropogenic objects.

Jizzax viloyatining tabiati, o'simlik va hayvonot dunyosi juda ham rang-barangdir va hayotda katta ahamiyatga egadir. O'simliklar nam saqllovchi, daryolar va soylar suvini bir me'yorda saqlab turuvchi, qumlarni mustahkamlovchi hamda havoni toza saqlab turuvchi kabi muhim omil bo'lish bilan birga kishilarga oziq-ovqat manbalaridan tashqari dam olib, hordiq chiqarib, estetik zavq beradigan muhitni tashkil etadi. Oldin aytib o'tganimizdek, Jizzax viloyati hududini saxro, cho'l, adir, baland yaylov mintaqasida shularga xos o'simlik va hayvonot dunyosi mavjud. O'simliklar aholi uchun nafaqatgina ozuqa, o'tin manbai bo'libgina qolmasdan balki, yovvoyilari dori-darmon tayyorlashda, har xil buyoqlar olishda katta ahamiyatga ega. Viloyatda tarkibida har xil dori-darmonlarga ega bo'lgan mevali (yong'oq, bodom, do'lana) daraxtlar, anzur piyoz, zira, ismaloq va ravoch kabi o'simliklar bor. Bu o'simliklarning mevasi viloyat aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Shimoliy Nurota tog'ining shimoliy yon bag'rida, Molgo'zar tog'ining Ravot va Zomin daryolar xavzasida qalin yong'oqzorlar bor. Turkiston tog' tizmasi shimoliy yon bag'rida zira o'sadigan maydonlar bor. Pistalitog' va Shimoliy Nurota tog'larining ravochi aholi tomonidan sevib iste'mol qilinadi. Viloyat cho'llarida yantoqzorlar uchraydi.

Keyingi yillarda viloyatda aholi va qishloq xo'jaliklari faoliyatida tabiatdan betartib foydalanishi natijasida uning tabiiy holatida sezilarli darajada o'zgarishlar yuz berib, asrlar davomida shakllangan geografik-biologik muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda[1-5]. Ayniqsa qishloq xo'jaligida adirlar, tog' oldi va cho'l zonalarida erlar betartib o'zlashtirilishi, chorvachilik va har xil rekreatsion ob'ektlar rejasiz joylashishi, tog-kon sanoati ta'siri, yaylovlarda mollarni haddan tashqari ko'pligi,

dorivor, foydali o'simliklarni tartibsiz yig'ib olinishi, hayvonlarni ovlash kabi salbiy unsurlar natijasida ekologik muvozanat o'zgarishi yuz berib, ba'zi o'simlik va hayvonlar turi kamayib yoki yo'qolib ketmoqda. Natijada anzur piyoz, zira, arxar, kiyik va bir qator o'simliklar, hayvonlar turi kamayib ketmoqda. Viloyatda ayrim shaxslar tomonidan o'simliklarni, ayniqsa dorivor va oziq-ovqat o'simliklarning piyozlarini, urug'ini, mevasini, bargini va ildizini ruxsatsiz, o'zboshimchalik bilan qoida-qonunga xilof ravishda yig'ib-terib olishlari tufayli ularning turi kamayib ketmoqda. Bu salbiy holatlarni oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 1 apreldagi 139-son qaroriga binoan O'zbekiston Respublikasi biologik xilma-xillikni saqlash milliy strategiya va harakat rejasi ishlab chiqildi. Milliy strategiya va harakatlar rejasini amalga oshirish va ularning o'tkazilishini nazorat qilish bo'yicha ishlarni tashkil etish uchun Biologik rang-baranglik milliy komissiyasi tuzildi. Bu rejaga muvofiq O'zbekiston hukumati, Birlashgan Millatlar tashkilotining Rivojlantirish Dasturi va Global ekologik jamg'armasi tomonidan amalga oshiriladigan Nurota-Qizilqum biosfera rezervati loyihasi ishlab chiqildi. Ushbu loyiha asosida yurtimizning tabiat muhofazasi, xalqimizni tarixiy va madaniy meroslarini saqlanishi hamda mahalliy aholining an'analari va iqtisodiyotini barqaror rivojlanishi ko'zda tutildi.

Bu loyiha hozirgi kundagi eng dolzarb masala bo'lgan aholini tabiatga bo'ladigan hurmatini oshiradigan targ'ibot ishlarini ham bajarishni imkonini beradi. Jizzax viloyatida bir qator muhofazaga olingan va kelajakda olinishi zarur bo'lgan hududlar bor (1-jadval).

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 20 oktyabrdagi 469-sonli qaroriga binoan Sangzor tog' oldi yer osti suv konlariga Respublika miqyosidagi maxsus muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar maqomi(statusi) berildi. Bundan Sangzor daryosini ikki qirg'og'idagi yuz metrlik masofadagi yerlar qattiq muhofazada bo'lishi ko'zda tutildi. Ayniqsa er osti suv resurslari paydo bo'ladigan maydonlarda aholini xo'jalik faoliyatini cheklash ko'zda tutilishi atmosfera va suv boyliklari pokiza saqlanishiga, tuproqning eroziyaga uchrashi va ifloslanishiga chek qo'yilishiga, o'simlik va hayvonot turlarini kamayib

ketishining oldi olinishiga, natijada iqtisodiyot juda katta zarar ko'rish, aholi salomatligiga salbiy ta'sir etishini ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

Jizzax viloyatida muhofazaga olingan va kelajakda olinishi zarur bo'lgan
hududlar

№	Qo'riqxonalar, milliy bog' va buyurtmalar nomi	Geografik o'rni	Tashkil etilgan yili	Maydoni, gektar hisobida	Muhofaza qilinadigan ob'ektlar
1. Qo'riqxonalar					
1	Zomin tog' o'rmon quruqxonasi	Zomin tumaniga qarashli Turkiston tizmasining G'uralash dovoni atrofi	1926	10500	Tog' landshafti va u erdagi archazorlar hamda tog' echkisi, tog' quyi, oq tirnoqli ayiq, sibir takasi kabi hayvonlar muhofaza qilinadi
2	Nurota tog' yong'oqzor-mevo qo'riqxonasi	Forish tumaniga qarashli Shimoliy Nurota tizmasida joylashgan	1975	22500	Tog' landshafti va u erdagi o'simliklar (yong'oqzor, olma, ravoch, olisha, tut), hayvonlar (to'ng'iz, tulki, jayra, burgut, lochin) muhofaza qilinadi
2. Xalq (milliy) bog'lari					
3	Jizzax xalq (milliy) bog'i	Zomin tumanida Zominsuv daryosining yuqori xavzasida joylashgan	1977	31503	Tog' landshafti va u erdagi o'simliklar (archazorlar) va hayvonlar dunyosi hamda rekreatsiya hududi (dam olish maskani) muhofaza qilinadi
3. Buyurtmalar					
4	Arnasoy	Jizzax viloyatining shimoliy qismida joylashgan	1977	63000	Arnasoy faunasini boyitib borish
4. Kelajakda muhofaza qilinadigan ob'ektlar					
5	Qirg'iz tabiat yodgorligi	Zomin, Jizzax tumanlarida	-	-	Molgo'zar tizmasi Furalash soyning yuqori qismida joylashgan tabiat yaratgan har xil shakllar, jumladan «Qirg'iz» qal'asini tabiiy holicha saqlash
6	Novqa	Baxmal tumani Chumqortog' tizmasining shimoliy qismida	-	-	O'ta toza, chuchuk mikro ma'danlarga boy karst yoriqlari va g'orlardan oqib chiquvchi buloq va uning atrofidagi daraxtlarni tabiiy holicha saqlash
7	Avliyo	Fallaorol tumani Molguzar tizmasining g'arbiy qismida	-	-	O'ta toza, chuchuk mikro ma'danlarga boy karst yoriqlari va g'orlardan oqib chiquvchi buloq va uning atrofidagi manzaralarini tabiiy holicha saqlash

8	Yettibuloq	Jizzax tumani Molguzar tizmasi-ning shimoliy qismida, Uobsoy xavzasida Teshik dara	-	-	O'ta toza, chuchuk mikro ma'danlarga boy karst yoriqlari va g'orlardan oqib chiquvchi buloq va uning atrofidagi manzaralarini tabiiy holicha saqlash
---	------------	--	---	---	--

Shunday qilib, inson faoliyati natijasida paydo bo'layotgan texnogen ob'ektlarni mintaqaning suv, tuproq resurslariga, o'simlik va hayvonot dunyosiga ta'sirini baholash maqsadida keng ko'lamli kuzatuv va ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish zarur. Bu ishlar biologiya, zoologiya, botanika, gidrologiya, gidrogeologiya va gidromelioratsiya fanlar yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Bu kuzatuv va tadqiqot ishlarni Davlat ilmiy-texnik dasturlari, xorijiy va respublika ishbilarmonlar xomiyligida bajarilishini ta'minlash hamda Jizzax viloyatining rang-barang, xilma-xil, ajoyib o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish uchun yangi xalqaro grantlar olish ishlarini qo'llab quvvatlash zarurdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Pozilov M.N., Xamidov S.X., Abdullaev A.A. Jizzax viloyatida texnogen obyektlarni suv va tuproq resurslariga ta'siri//International Scientific Journal "Science and Innovation", 2024, April, pp 172.
2. Pozilov M.N., Каримова Ф.С., Туйчиев Д.Э. Рациональное использование и охрана ресурсов пресных подземных вод Голодностепского региона//Экономика и социум, Россия, 2024, №3(118)-1, стр. 799.
3. Pozilov M.N., Karimova F.S., Sarabekova M., Sunnatullayeva S.Mirzacho'l vohasida yer osti suv resurslaridan samarali foydalanish va muhofaza qilish// Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi, 2024, 3-1, 170 bet.
4. Pozilov M.N.Рационального использования и охраны ресурсов пресных подземных вод Джизакского вилоята//“Science and Education” scientific journal, 2024, Volume 5, Issue 5, pp 249.
5. Pozilov M.N., Karimova F.S., Marqaboyeva D.M. Nurota-Turkiston tog' massivi va yon bag'ri tarkibiy-gidrogeologik asosi hamda yer osti suvlari hosil bo'lishining

ilmiy asoslari, ularni ratsional saqlash va samarali foydalanish//Qo‘qon DPI ilmiy xabarlari jurnali, 2025, 5-son, A seriya, 627 bet.